DEVONXONA

ISSN: 2992-877X

IQTISODIY TARAQQIYOT VA TAHLIL ILMIY ELEKTRON JURNAL

IQTISODIY TARAQQIYOT VA TAHLIL

ilmiy elektron jurnali

VI son IYUN 2025

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И АНАЛИЗ

ECONOMIC DEVELOPMENT AND ANALYSIS

www.sci-p.uz

IQTISODIY TARAQQIYOT VA TAHLIL ILMIY ELEKTRON JURNAL

“IQTISODIY TARAQQIYOT VA TAHLIL” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIR KENGASHI TARKIBI

Tahrir kengash raisi: i.f.d., prof. Isayev Faxriddin Ikromovich
Bosh muharrir: DSc, dots. Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o‘g‘li

Tahrir kengashi a’zolari
i.f.d., prof. Hotamov Komil Rabbimovich
i.f.d., prof. Xolmo‘minov Shayzoq Rahmatovich
i.f.d., prof. Yumusak Ibrahim Guran (Turkiya)
i.f.d., prof. Azmi Omar (Malayziya)
i.f.d., prof. Kurbanov Ziyat Niyazovich
i.f.d., prof. Qodirov Abdurashid Madjidovich
i.f.d., prof. Rizayev Nurbek Kadirovich
i.f.d., prof. Tomash Kuchera (Chexiya)
i.f.d., prof. Usmanov Anvar Saidmaxmudovich
i.f.d., prof. Xajimuratov Nizomjon Shukrullayevich
i.f.d., prof. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich
i.f.d., prof. Nader Alber (Misr)
i.f.d., prof. Xudoyqulov Xurshid Xurramovich
i.f.d., prof. G‘ofurov Ubaydulla Vaxobovich
i.f.d., prof. Urmonov Jahongir Jaloldinovich
i.f.d., dots. Abdurahmonov Ilyos Xurshidovich
i.f.d., dots. Valiyev Bobur Batirovich
DSc Hasanov Akram Shavkatovich (Malayziya)
i.f.d. Normurzayev Umid Xolmurzayevich
PhD A’lam Asadov (Saudiya Arabistoni)
PhD Ahmed Mohammed Aziz Ismail (Misr)
PhD Teguh Dartanto (Indoneziya)
PhD Siti Hawa Yusof (Malayziya)
PhD Ma’murov Baxtiyor Xolmatjonovich

Mas’ul kotib: Kamilova Sanobar Mirdjamalovna

IQTISODIY TARAQQIYOT VA TAHLIL ILMIY ELEKTRON JURNAL

MUNDARIJA

Abduraxmonov F., Ismoilov A.	O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqalarning joriy holati va istiqbollari	8
Akbarov J.	Iqtisodiyotda raqobatni rivojlantirish – tezkor iqtisodiy o‘sishning kaliti	17
Aliqulov A	Sun’iy intellekt texnologiyalarining oliy ta’lim baholash tizimiga integratsiyalashuvi	25
G‘aniyev G‘.	Oliy ta’lim xizmatlari tizimida raqobat	33
Ismatova S.	O‘zbekiston hududlarining raqobatbardoshligini ta’minlashda xorij tajribasi	39
Jahongirov K.	Buxoro ziyoratgohlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish yo‘nalishlari va istiqbollari	45
Musaboyev R.	O‘zbekiston hududlarida maishiy xizmat ko‘rsatishning zamonaviy bozorini rivojlantirish xususiyatlari	54
Nasimov R.	Soliq riskini baholashning xorij tajribasi va undan milliy soliq tizimida foydalanish yo‘nalishlari	60
Nazarov N.	O‘zbekistonda kichik biznesning statistik ko‘rsatkichlari axborot bazasining iqtisodiy samadorlikka ta’siri	70
Nurmanov Sh.	Cho‘l-yaylov chorvachiligi mahsulotlari sotish tizimini takomillashtirish va tarmoqni modernizatsiyalash	79
Onorboev Sh.	Kimyo sanoati korxonalarida ABC (faoliyatga asoslangan xarajatlar) metodologiyasini qo‘llash xususiyatlari	86
Raximov X.	Temir yo‘l transport tizimining iqtisodiy samaradorlik tushunchasi va uni baholash ko‘rsatkichlari	95
Tohirov A.	Janubiy Koreya tajribasi asosida O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini barqaror rivojlantirishga oid yondashuvlar	102
Tursunova G.	Qoraqalpog‘iston respublikasida gastronomik turizmni rivojlantirish orqali turlarni ishlab chiqish	112
Xakimov T.	Qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyati tahlilini axborot bilan ta’minlash	123
Xayitova M.	O‘zbekistonda bank mijozlarining kreditlardan foydalanish tahlili	133
Xolbayev S.	Mamlakat iqtisodiyotida tashqi savdo erkinlashtirilishining raqobat muhitining shakllanishiga ta’siri	144
Гулбоев У.	Инновацион иқтисодиёт шароитида давлат харидларини такомиллаштириш истиқболлари	149
Жўраев А.	Давлат харидлари соҳасида рақамли технологияларни қўллашнинг хорижий мамлакатлар тажрибалари таҳлили	155

Зойиров Л	Суғурта компанияларининг “яшил” инвестициялари 162
Иватов И.	Савдо хизматлари тизимини ривожлантиришнинг моҳияти ва зарурияти... 171
Исроилова М.	Реал секторни давлат томонидан тартибга солишнинг ўзига хос хусусиятлари, усуллари ва воситалари 177
Мухторов Б.	Банк рақамли платформаларининг халқаро савдога таъсири 190
Otamurodov Sh., Eshqulova N.	O‘zbekiston eksportining o‘sish omillari: mahsulot va bozor diversifikatsiyasi tahlili 197

Салимова Ю.	Ўзбекистон Республикасида турли маъмурий даражадаги шаҳарларнинг барқарор ривожланишини бошқаришнинг ўзига хос хусусиятлари 206
Сатторов Т.	Тайёр маҳсулотларни қайта ишлаш жараёни бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш 220
Урмонов Ж.	Солиқ имтиёзларининг иқтисодий самарадорлиги: Европа ва Осиё давлатлари тажрибаси 234
Эрназаров Г	Хизмат кўрсатиш соҳаси, унинг асосий кўрсаткичлари, иқтисодий таҳлили ва истиқболлари 240
Nasrullayev N.B.	Temir yo’l xizmatlarini mamlakat iqtisodiyotiga qo’shayotgan hissasi..... 247
Raximov N.R., Azamzoda Q., Bozorov A.X., Murodov S.N.	Vaqtli qatorlarni murakkab iqtisodiy-matematik usullar bilan tahlil qilish..... 253
Сабуров Ж.С.	Ҳудудий қишлоқ хўжалиги соҳасини интенсив ривожланишини таъминлаш имкониятларидан фойдаланиш..... 259
Ташматов Ш.Ҳ.	Банк фаолияти ривожланиши механизмларини такомиллаштириш..... 267
Абдуллаев С.С.	Маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари раҳбар ходимлари бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолаш мезонларини такомиллаштириш (Қарши тумани ҳокимлиги мисолида)..... 276

IQTISODIY TARAQQIYOT VA TAHLIL ILMIY ELEKTRON JURNAL

СОДЕРЖАНИЕ

Абдурахмонов Ф., Исмаилов А. Текущее состояние и перспективы двусторонних отношений между Республикой Узбекистан и федеративной Республикой Германия 8

Акбаров Ж. Развитие конкуренции в экономике – залог быстрого экономического роста..... 17

Аликулов А. Интеграция технологий искусственного интеллекта в систему оценки высшего образования ..... 25 Ганиев Г. Конкуренция в системе услуг высшего образования 33

Исматова С. Зарубежный опыт обеспечения конкурентоспособности регионов Узбекистана 39

Жахонгиров К. Направления и перспективы внедрения цифровых технологий в бухарских святилищах 45

Мусабоев Р. Особенности развития современного рынка бытовых услуг в регионах Узбекистан а 54

Насимов Р. Зарубежный опыт оценки налоговых рисков и направления его использования в национальной налоговой системе 60

Назаров Н. Влияние информационной базы на экономическую эффективность статистических показателей малого бизнеса в Узбекистане 70

Нурманов Ш. Совершенствование системы сбыта продукции животноводства и модернизация отрасли 79

Онорбоев Ш. Особенности применения методологии ABC (activity-based costing) на предприятиях химической промышленности 86

Рахимов Х. Понятие экономической эффективности железнодорожной транспортной системы и показатели ее оценки ..... 95 Тохиров А. Подходы к устойчивому развитию туристической инфраструктуры в Узбекистан е на основе опыта Южной Кореи 102

Турсунова Г. Разработка туров посредством развития гастрономического туризма в республике каракалпакстан 112

Хакимов Т. Информационное обеспечение анализа экономического потенциала сельскохозяйственных предприятий 123

Хайитова М. Анализ эффективности использования банковских кредитов клиентами в Узбекистане 133

Холбаев С. Влияние либерализации внешней торговли на формирование конкурентной среды в экономике страны 144

Гулбоев У. Перспективы совершенствования государственных закупок в инновационной экономике 149

Джураев А. Анализ зарубежного опыта применения цифровых технологий в сфере государственных закупок ..... 155 Зоиров Л. «Зелёное инвестирование» страховых компании 162

Иватов И. Сущность и необходимость развития системы торговых услуг 171

Исроилова М. Особенности, методы и инструменты государственного регулирования реального сектора 177
Мухторов Б. Влияние платформ цифрового банковского обслуживания на международную торговлю 190

Салимова Ю. Особенности управления устойчивым развитием городов различного административного ранга в Республике Узбекистан 206
Сатторов Т. Совершенствование учета процесса переработки готовой продукции 220
Урмонов Дж. Экономическая эффективность налоговых льгот: опыт европейских и азиатских стран 234
Эрназаров Г. Сектор сферы услуг, его основные показатели, экономический анализ и перспективы 240
Насруллаев Н.Б. Вклад железнодорожных услуг в экономику страны..... 247
Рахимов Н.Р., Аъзамзода К., Бозоров А.Х., Муродов С.Н. Анализ временных рядов сложными экономико-математическими методами 253
Сабуров Д.С. Использование возможностей обеспечения интенсивного развития региональной сельскохозяйственной сферы..... 259
Ташматов Ш.Х. Совершенствование механизмов развития банковской деятельности..... 267
Абдуллаев С.С. Совершенствование критериев оценки эффективности управленческой деятельности руководящих кадров местных органов исполнительной власти (на примере хокимията Каршинского района)..... 276

IQTISODIY TARAQQIYOT VA TAHLIL ILMIY ELEKTRON JURNAL

CONTENT

Abdurakhmonov F., Current state and prospects of bilateral relations between the Republic of Uzbekistan and Ismoilov A. the federal Republic of Germany 8

Akbarov J.	Developing competition in the economy is the key to rapid economic growth..... 17
Aliqulov A.	Integration of artificial intelligence technologies into the higher education assessment system 25
Ganiev G.	Competition in the system of higher education services..... 33
Ismatova S,	Foreign experience in ensuring the competitiveness of Uzbekistan's regions..... 39
Jahongirov K.	Directions and prospects for the introduction of digital technologies in Bukhara shrine sites..... 45
Musaboyev R.	Features of the development of the modern consumer services market in the regions of Uzbekistan 54
Nasimov R	Soliq riskini baholashning xorij tajribasi va undan milliy soliq tizimida foydalanish yo'nalishlari 60
Nazarov N.	The impact of the information base on economic efficiency of the statistical indicators of small business in Uzbekistan 70
Nurmanov Sh.	Improvement of the livestock product distribution system and modernization of the industry 79
Onorboev Sh.	Features of the application of the ABC (activity-based costing) methodology at chemical industry enterprises 86
Rakhimov Kh.	The concept of economic efficiency of the railway transport system and its assessment indicators 95
Tokhirov A	Approaches to sustainable development of tourism infrastructure in Uzbekistan based on South Korea's experience 102
Tursunova G.	Developing tours through the promotion of gastronomic tourism in the Republic of Karakalpakstan 112
Khakimov T.	Information support for the analysis of the economic potential of agricultural enterprises... 123
Khayitova M.	Analysis of effective use of bank loans by clients in Uzbekistan..... 133
Kholbayev S.	The impact of foreign trade liberalization on the formation of a competitive environment in the country's economy..... 144
Gulboyev U.	Prospects for improving public procurement in the innovation economy..... 149
Juraev A.	Analysis of international experience in the application of digital technologies in public procurement..... 155
Zoirov L.	Green investing of insurance companies 162
Ivatov I.	The essence and need of development trade services system 171
Isroilova M.	Specific features, methods, and instruments of state regulation of the real sector..... 177
Mukhtorov B.	Impact of digital banking platforms on international trade..... 190
Otamurodov Sh., Eshkulova N.	Determinants of Uzbekistan's export growth: an analysis of product and market diversification..... 197
Salimova Y.	Features of sustainable development of cities of different administrative ranks in the Republic of Uzbekistan 206

Sattorov T	Improvement of accounting in the process of convertion finished products..... 220
Urmonov J.	Economic efficiency of tax incentives: experience of european and asian countries..... 234
Ernazarov G.	The service sector, its main indicators, economic analysis and prospects..... 240
Nasrullaev N.B.	The contribution of railway services to the national economy..... 247
Raximov N.R., Azamzoda K., Bozorov A.X., Murodov S.N.	Analysis of time series by complex economic-mathematical methods..... 253
Saburov J.S.	Usage opportunities to ensuring intensive development of the regional agricultural sphere..... 259
Tashmatov Sh.K.	Improvement of development mechanisms of banking activities..... 267
Abdullayev S.	Mprovement of the criteria for evaluating the effectiveness of managerial activities of executive personnel in local government bodies (the case of the Karshi district khokimiyat)..... 276

IQTISODIY TARAQQIYOT VA TAHLIL ILMIY ELEKTRON JURNAL

VI SON - IYUN, 2025

“IQTISODIY TARAQQIYOT VA TAHLIL”

ILMIY ELEKTRON JURNAL

IQTISODIY TARAQQIYOT VA TAHLIL ILMIY ELEKTRON JURNAL

UO‘K: 316.422

CHO‘L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAHSULOTLARI SOTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA TARMOQNI MODERNIZATSIYALASH

Nurmanov Sherzod
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
ORCID: 0009-0004-8479-0632
nurmanov4730@gmail.com.

Annotatsiya. *Ushbu maqola cho‘l -yaylov chorvachiligi mahsulotlarini sotish tizimini takomillashtirish va tarmoqni modernizatsiyalash masalalariga bag‘ishlangan. Shuningdek, cho‘l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini qayta ishlash, transport xizmati, marketing va xo‘jali k yuritishning zamonaviy yondashuvlari taklif etiladi. Shuningdek, mintaqaning ekologik va ijtimoiy muammolarini hal qilish uchun ilg‘or texnologiyalar va innovatsion usullardan foydalanish taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *cho‘l-yaylov chorvachiligi, qorako‘l terisi, mahsulotlarni qayta ishlash, tarmoqni modernizatsiyalash, ekologik choralar, iqtisodiy samaradorlik, texnologik rivojlanish, innovatsion yondashuvlar.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СБЫТА ПРОДУКЦИИ ЖИВОТНОВОДСТВА И МОДЕРНИЗАЦИЯ ОТРАСЛИ

Нурманов Шерзод
Самаркандский государственный университет
ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии

Аннотация. *Данная статья посвящена вопросам совершенствования системы реализации продукции степного животноводства и модернизации сети. Также предложены современные подходы к переработке продукции пустынно -пастбищного животноводства, транспортному обслуживанию, марке тингу и менеджменту. Также предлагается использование передовых технологий и инновационных методов для решения экологических и социальных проблем региона.*

Ключевые слова: *степно-пастбищное животноводство, каракольская кожа, переработка продукции, модернизация сети, экологические мероприятия, экономическая эффективность, технологическое развитие, инновационные подходы.*

IMPROVEMENT OF THE LIVESTOCK PRODUCT DISTRIBUTION SYSTEM AND MODERNIZATION OF THE INDUSTRY

Nurmanov Sherzod
Samarkand State University of Veterinary Medicine,
Animal Husbandry and Biotechnology

Abstract. *This article is devoted to the issues of improving the system of sale of steppepasture livestock products and modernization of the network. Also, modern approaches to processing, transport services, marketing and management of steppe-pasture livestock products are proposed. It is also proposed to use advanced technologies and innovative methods to solve the ecological and social problems of the region.*

Keywords: *steppe-pasture livestock, karakul skin, product processing, modernization of the industry, ecological measures, economic efficiency, technological development, innovative approaches.*

Kirish.

Hozirgi kunda qishloq ho‘jalik mahsulotlari savdosi tarkibiga tovar-xom ashyo birjalari, chorvachilik mahsulotlari yarmarkalari, tijorat-vositachi firmalar, kichik hajmda chorvachilik mahsulotlari ulgurji va chakkan savdosi bilan shug‘ullanuvchi do‘konlar, supermarketlar, savdo uylari, dehqon bozorlari va boshqa savdo shahobchalarini kiritish mumkin.

Cho‘l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini yetkazib berish tizimi talab darajasida shakllanmaganligi, qayta ishlovchi korxonalar yetishmasligi natijasida mahsulot yetishtiruvchilar ham ite’molchilar ham zarar ko‘rishmoqda. Ko‘p hollarda tadbirkorlar o‘z mahsulotlarini yaqin joylashgan bozorlarga olib chiqishi mahalliy bozorda mahsulotlar miqdorining ko‘payshiga va narxning pasayishga hamda ishlab chiqarivchining zarar ko‘rishiga olib keladi. Qayta ishlovchi korxonalar yetishmasligi sababli ishlab chiqarilgan mahsulotlarning bir qismi sotilmasdan qolmoqda.

Cho‘l-yaylov chorvachiligi xo‘jaliklari har kuni bozorga mahsulot chiqarish imkoniyatiga ega emaslar. Shu sababli ular tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotlarni sotishda imtiyozli sharoitlar yaratilishi lozim.

Bu muammo cho‘l-yaylov chorvachiligida mahsulotlarni qayta ishlash va sotishga ixtisoslashgan kooperativlar tashkil etish yo‘li bilan yechiladi. Bunday kooperativlarga cho‘lyaylov chorvachiligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va Tovar mahsulotlarin sotish hamda transport xizmati ko‘rsatuvchi korxonalarni kiritish mumkin. Qorako‘l teri va junning asosiy qismi respublikada 3-4 ta firma tomonidan tayyorlananilmoqda va ular O‘zbekiston bozorida monopol mavqeiyga egadirlar. Bu esa yetishtirilgan mahsulotlar bozor baholaridan ancha past sotilishi va ishlab chiqaruvchilar moddiy manffatdorligi kamsitilishiga olib kelmoqda. “Mexovaya Moda” MCHJ faoliyati tahlili ko‘rsatdiki, tuzlangan qorako‘l terini o‘rtacha 38,0 ming so‘mdan sotib olgan, uni oshlab 65,0 ming so‘mdan sotgan. Ushbu terilardan tayyorlangan shubadagi bir dona qorako‘l terining o‘rtacha narxi 118,0 ming so‘mni va mos ravishda olingan foyda 17,0 va 64,0 ming so‘mni tashkil qilgan.

“Istiqlol” ixtisoslashgan naslchilik xo‘jaligi (INX) tirik vaznda 1 sentner go‘shtni 683,6 ming so‘mdan, go‘sht shaklida 2000,0 ming so‘mdan va kolbasa shaklida esa 2780,0 ming so‘mdan sotgan va mos ravishda 229,1, 985,9 va 1810,0 ming so‘m foyda olingan. “Sayxan” INX, 1 sentner juni 800,0 ming so‘mdan kigiz tayyorlovchi sexga sotib 26,1 ming so‘m foyda olgan, sex esa tayyor mahsulot shaklidagi junni 3478,6 ming so‘mdan sotib, 1735,7 ming so‘m foyda olgan.

Ta‘kidlash o‘rinliki, qayta ishlash korxonalari yetishmasligi, mahsulot ishlab chiqariladigan joylarda ularning deyarli yo‘qligi sababli mahsulotlarning katta qismi xom ashyo shaklida sotilmoqda, hatto bir qismi sotilmasdan qolmoqda.

Shu sababli kooperativlarning asosiy vazifasi – cho‘l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini mayda tovar ishlab chiqaruvchilardan yig‘ish va qo‘lay yo‘llar bilan sotishni tashkil etish, hamda bozor talabidan kelib chiqqan holda ularni qayta ishlash. Shu bilan birgalikda kooperativlar mayda tovar

ishlab chiqaruvchilarni omuxta yem va dag‘al xashak bilan ta’minlaydi, ularga zooveterinariya xizmatlari shuningdek, respublikaning cho‘l-yaylov mintaqalaridagi tovar ishlab chiqaruvchilarga va aholiga boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanishadi. Bu shahar va yirik aholi yashash punktlaridan uzoqda joylashgan mayda tovar ishlab chiqaruvchilar va aholi uchun o‘ta muhim ijtimoiy-iqtisodiy masala hisoblanadi.

Cho‘l-yaylov chorvachiligining barqaror rivojlanishi va mamlakat aholisini uzliksiz oziqovqat mahsulotlari bilan ta’minlash maqsadida (go‘sht, qo‘y, ot va tuya suti) hamda qorako‘l terisi, jun, qo‘y terisi, shirdon va boshqa turdagi yirik mollar terisi kabi qimmatli xom ashyoning joylarda to‘liq qayta ishlanishini amalga oshirish uchun tarmoqda tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy, texnologik va ekologik tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar sharhi.

Adabiyotlar tahlili orqali chorvachiligi mahsulotlari sotish tizimini takomillashtirish haqida mavjud ilmiy ishlar va tadqiqotlar o‘ganildi. .Salamov, Nurmanov (2024) “Qishloq xo‘jaligi klasterlarida mahsulotlarni ichki va xorij bozorlariga eksport qilish jarayonlari menejmenti” nomli ilmiy maqolasida qishloq xo‘jaligi klasterlarida mahsulotlarni ichki va xorij bozorlariga eksport qilish (menejmenti, mahsulotlarni tashish, saqlash, qayta ishlash, sublimatsiya qilish, quritish, ular tarkibidagi nitrat va nitritlarni aniqlash) jarayonlari, Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligida 2021- 2022-yillar yakunlari taqqoslangan, xulosalar, takliflar berilgan. Samarqand viloyatida tashkil etilgan chorvachilik klasterlari haqidagi ma’lumotlar ham berilib, xorij mamlakatlarida mahsulot va tovarlarni yetkazib berish tajribalaridan ayrimlari keltirilgan. Klasterlarni tuzishdagi va ular faoliyatini yuritishdagi jarayonlarni takomillashtirishda menejment usullarini qo‘llash masalalari yoritilgan. Tangirov (2025) “Cho‘l-yaylovlari ekologik holati va ularning samaradorligini oshirish yo‘lari” nomli ilmiy maqolasida mamlakat cho‘l-yaylovlari degradatsiyalanish darajasining hozirgi holati va uni qayta tiklash, ekologik barqarorlikni ta’minlaydigan innovatsion texnologiya “Yaylovqorako‘lchilik kompleksi” modeli ishlab chiqarishga joriy etish va uning iqtisodiy samaradorligi kabi masallar o‘rganilgan . Tangirov (2019) “Экономическая эффективность переработки каракульских шкур” nomli ilmiy maqolasida Cho‘l-yaylov chorvachilik fermalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar fermer xo‘jaliklari qayta ishlash uchun umumiy ovqatlanish korxonalariga yetkazib beriladi va xususiy tadbirkorlar, aholi tomonidan savdo va dehqon bozorlarida sotish masalalari va usullari ko‘rib chiqilgan.

Yuqoridagi ilmiy maqolalar chorvachiligi mahsulotlari sotish tizimini takomillashtirish va tarmoqni moderinizatsiyalash tizimini takomillashtirishda muhim manbalar hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlar sotish tizimini takomillashtirish rivojlanishda o‘z ta’sirini o‘rganishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metadologiyasi.

Ushbu tadqiqot ishida nazariy tahlil va kontent tahlili, empirik tadqiqot, kompleks tahlil, statistik tahlil, kvantitativ va sifatli tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tashkiliy tadbirlar – yuqori mahsuldor, raqobatbardosh tegishli rangdagi va rangbaranglikdagi (sur, ko‘k, kumush, po‘lati va boshqa.) va gul tipidagi (qavurg‘asimon, yassi, qorako‘lcha) qorako‘l teri beradigan qorako‘l qo‘ylarining zavod tiplarini yaratish, zotning mavjud genfondini saqlash va boshqa mamlakatlardagi qorako‘l qo‘yining genotiplari bilan uni boyitish, zarur iqtisodiy manfaatdorlik choralarini amalga oshirish, salohiyati yuqori naslli qo‘chqorlar sperma bankini yaratish, genofondning saqlanishini ta’minlaydi va mavjud zotlarni takomillashtirishning muhim usullaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, barcha xo‘jaliklarni avvalom bor dehqon va aholi yordamchi xo‘jaliklarini yuqori mahsuldor ona qo‘ylar va naslli qo‘chqorlar hamda ularning spermalari bilan ta’minlash lozim;

- yaylovlardan foydalanish va cho‘lda ozuqa tayyorlash qismida: yaylov o‘simliklari degradatsiyaga uchraganligi sababli keyingi yillarda mollarning yaylovdan oladigan ozuqasi miqdori keskin kamaygan. Bunga sabab, tabiiy yaylov ozuqa zaxirasiga nisbatan 3-4 marta ko‘p miqdordagi

mollarning boqilishidir. Suv manbalarining eskrishi va ishdan chiqishi bir yaylov maydonida mollar ortiqcha boqilishi, ikkinchisida esa boqilmasligiga olib kelmoqda. Shu sababli yangi yaylov maydonlarini o‘zlashtirish, suv manbalari bilan bog‘liq bo‘lgan masalani yechish, hosildorlikni hisobga olgan holda yaylovni boshqarish tizimini ishlab chiqish va uni joriy etish. Yaylovlardan ratsional foydalanish tizimini qo‘llash va yerning kadastr bahosini aniqlash, yuqori hosili navlardan foydalangan holda degradatsiyalangan yaylov maydonlarini fitomelioratsiyalash, urug‘ yetishtirish maydonlari tashkil etish, bosqichma-bosqich yaylovlarni suv manbalari bilan ta’minlash, hamda yuqori hosildorli (tabiiy yaylovga nisbatan 3-5 barabor ko‘p hosil beradigan) su’niy yaylovlarni yaratish;

- cho‘l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini qayta ishlash qismida: birinchidan, mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi, ularni qayta ishlovchi, agrosevis va aholiga madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatuvchi ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklar va agrofirmalarini shakllantirish; ikkinchidan, joylarda kooperatsiya asosida cho‘l-yaylov mahsulotlaridan tayyor tovarlar tayyorlovchi va ozuq-ovqat mahsulotlarini sotuvchi, hamda tayyor buyumlar ishlab chiquvchi ixcham sanoat korxonalarini qurish;

- tayyor tovar mahsulotlarini sotish qismida: qorako‘l terisi va undan tayyorlangan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar xalqaro mo‘yna auksionlarida muntaazam ishtirok etishlari uchun, shuningdek, qorako‘l teri, jun, mol terilaridan ishlangan buyumlarni sotish maqsadida o‘zga yurtlarda savdo uylari ochishi uchun davlat ularni qo‘llab-quvvatlashi lozim;

- tovar ishlab chiqaruchilar bilimini oshirish qismida: cho‘l- yaylov mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo‘yicha o‘quv- qo‘llanma tayyorlash, uni har bir ishlab chiqaruvchiga yetkazish va ishlab chiqarish samarodorligini oshirish bo‘yicha joylarda seminar-trenglar tashkil etish;

- moddiy texnika ta’minoti qismida: ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur bo‘ladigan jihozlar va materiallar xususan xorijiy mamlakatlardan yetkazib berilishida ishlab chiqaruchilarga davlat imtiyozli sharoit yaratishi va moliyaviy yordam ko‘rsatishi lozim.

Iqtisodiy tadbirlar. Cho‘l-yaylov chorvachiligi mintaqalarining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darajasi respublikaning o‘rtacha ko‘rsatkichidan 5-6 marta kamligini hisobga olib, ushbu iqtisodiy nochor hududlar rivojlanishini barqarorlashtirishga qaratilgan infratuzilmaviy loyihalarini moliyalashtirish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar uchun bir foizlik hamdardlik (solidarlik) solig‘ini 5-yil muddatga joriy etish va shakllantirilgan mablag‘larni cho‘l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashni moderinizatsiyalash va diversifikatsiyalashga yo‘naltirish maqsadga muvofiq;

- cho‘l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi su’bektlarga zamonaviy agroservis xususan zooveterinariya xizmatlari ko‘rsatishni qishloq joylarda shakllantirish uchun xususiy zooveternariya va boshqa turdagi agroservis xizmatlarini ko‘rsatuvchi shaxobchalarni tashkil etish maqsadida tadbirkorlarga tijorat banklaridan imtiyozli kreditlar ajratilishi maqsadga muvofiq.

- cho‘l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini joylarda qayta ishlovchi xususiy, ixcham sanoat korxonalarini tashkil etilishini yo‘lga qo‘yish maqsadida tadbirkorlarga davlat moliyaviy yordam ko‘rsatishi va tijorat banklaridan imtiyozli kreditlar ajratilishiga ko‘maklashishi;

- ixtisoslashga auksionlar naslli va boshqa mollar sotilishni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, zooveterinaiya, naslchilik, mollarni go‘shtga so‘yish va boshqa xizmatlarni ko‘rsatadiga punkitlarni tashkil etish yo‘li bilan cho‘l-yaylov chorvachiligi rivojlangan mintaqalarda tadbirkorlarning iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish;

- cho‘l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, tashish va iste’molchiga yetkazib berishning ilg‘or usullari va zamonaviy texnologiyalari hamda ularning o‘zaro ishlab chiqarish- shartnoma-moliyaviy munosabatlari bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari tashkil etish;

- zamonaviy texnologik jihozlarni, yuqori samadorligi texnologiyalar va mini sexlarni sotib olishi uchun cho‘l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini qayta ishlovchi xo‘jalik va korxonalarga uzoq muddatli kreditlar ajratish;

- cho‘l-yaylov chorvachiligida muhim vazifa – chorvador-xo‘jayin shakllanishiga qulay muhit yaratish hisoblanadi. Buning uchun bozor maydoni, bozorning barcha tarkibiy bo‘linmalari (ishlab chiqarish, qayta ishlash, savdo, ijtimoiy-iste’mol infratuzilmasi va tijoratvositachilik tashkilotlari) va ularning o‘zaro faoliyat ko‘rsatish mexanizmlari, bosqichmabosqich xususiy mulkka asoslangan fermer va ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari, hamda agrofirmalar va boshqa xo‘jalik yuritish shakllarini cho‘l mintaqalarida tashkil etish, bunda ishlab chiqarish, mahsulotlarni sotish va foydani taqsimlashda ishlab chiqaruvchining iqtisodiy erkinligi ta’minlanadi.

Texnologik tadbirlar: Respublika yaylovlaridan ratsional foydalanish uchun mavjud shaxtali quduq va skvajinalarni moderinizatsiyalash va yangi suv manbalarini ishga tushirish hisobiga suv bilan ta’minlanmagan yaylovlarni o‘zlashtirish hamda yaylov aylanmasi tizimidan samarali foydalanish. Shu bilan birgalikda yaylovni himoyalovchi ixotazorlarini barpo qilish va yuqori hosilli ko‘pkomponentli yaylov agrofitotsenozlarini yaratish yo‘li bilan ularni tubdan yaxshilash;

- poda tarkibini va sifatini takomillashtirish (ona qo‘y salmog‘i kami bilan 70-75 %) hamda seleksiya va naslchillik ishlarini tubdan yaxshilash hisobiga cho‘l-yaylov chorvachiligi mahsulotlari raqobotbardoshligini ta’minlash va ishlab chiqarishni ko‘paytirish;

- cho‘l-yaylov chorvachiligida mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonida resursotejamkor va atrof – muhitni muhofazalovchi texnologiyalardan foydalanishning dolzoribligi, bozor talablaridan kelib chiqqan holda xo‘jaliklar faoliyati qorako‘l teridan go‘sht ishlab chiqarishga yo‘naltirilganligi (katta yoshlilarni bo‘rdoqilash va 2-3 oylik qo‘zilardan qo‘zi go‘shti yetishtirish), cho‘l-yaylov chorvachiligi urchitiladigan joylarda qayta ishlash korxonalarini qurish, qorako‘l terisi, mol terilari, jun, go‘sht, sut va boshqa mahsulotlarni qayta ishlaydigan zamonaviy texnologiyalar bilan ularni jihozlash;

- cho‘l-yaylov chorvachiligi majmuasiga kiruvchi barcha korxonalarda zooveterinariya tadbirlarini yuqori darajada tashkil etish.

Ekologik tadbirlar: Cho‘l-yaylov chorvachiligi joylashgan mintaqalardagi aholini doimiy ish o‘rinlari, shuningdek, ichimlik suvi, oziq-ovqat mahsulotlari, tabiiy gaz, elektr energiyasi va boshqa kundalik zarur ehtiyojlar ta’minotini tubdan yaxshilash, tabiiy yaylovlar degradatsiyasini bartaraf qilish va inqrozga uchragan yaylov maydonlarini tiklash;

- innovatsion texnologiyalardan foydalanib, mollar go‘ngidan biogaz ishlab chiqarishni tashkil etish.

Xulosa va takliflar.

Cho‘l-yaylov chorvachiligida yuqori mahsuldor, raqobatbardosh tegishli rangdagi, rangbaranglikdagi va gul tipidagi teri beradigan qorako‘l qo‘ylarining zod tiplarini yaratish, yaratilgan zotning mavjud genfondini saqlash, qorako‘l qo‘yining genotiplari bilan uni boyitish, zarur iqtisodiy manfaatdorlik choralarini amalga oshirish, salohiyati yuqori naslli qo‘chqorlar sperma bankini yaratish, genofondning saqlanishini ta’minlaydi va mavjud zotlarni takomillashtirishning muhim usullaridan biri hisoblanadi. Barqaror rivojlanishini, oziq-ovqat va xom ashyo hamda tayyor tovar mahsulotlari ishlab chiqilishi ko‘payishini ta’minlaydi, shuningdek, tarmoq iqtisodiy samaradorligi oshishiga imkoniyat yaratadi.

Qorako‘l qo‘yini oziqlantirishda ozuqa tayyorlashning samarali texnologiyalaridan foydalanib, ularni to‘la qiymmatli (oqsil va vitaminlar bilan boyitilgan) ozuqalar bilan ta’minlash, yaylovning hosildorligini hisobga olgan holda ehtiyot zaxira ozuqani tayyorlashni taqozo etadi.

Cho‘l-yaylov chorvachiligi mintaqalarida xo‘jalik yuritish shakllarini mukammalashtirish davrida soliq, kerdit, boj, sug‘urta, lizing, ijara to‘lovlari va zarur moddiy resurslar, mashina va mexanizmlar hamda jihozlar xarid qilishda davlat tomonida imtiyozlar kamida 5-yilga belgilanishini; bozorning boshqa turlari bilan birgalikda respublikada naslli qorako‘l qo‘ylari bozori, mo‘yna va qorako‘l terisi auksionini tashkil etish.

Chorvachilik xo‘jaliklari bilan tayyorlov, qayta ishlash, sotish va ularga xizmat qilishga ixtisoslashgan subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro shartnomaviy munosabatlarning qonuniy va huquqiy jihatdan ustuvorligini belgilash asosida tomonlarning o‘zlariga yuklatilgan majburiyatlarining bajarilishi, ularning javobgarliklari, huquqlari va vazifalarini bozor tamoyillariga mos kelishini ta’minlash lozim.

Innovatsion texnologiyalar hisobiga mollarni ozuqlantirish va saqlashni takomillashtirish hamda ozuqa tayyorlashning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanilgan holda ularni to‘la qiymmatli ozuqalar bilan ta’minlash, yaylov hosildorligini hisobga olgan holda ehtiyot zaxira ozuqa tayyorlash kerak.

Yaylov o‘simlik qoplamidan ratsional foydalanish, tiklash va ularning hosildorligini oshirish, biologik xilma-xilikni himoyalash va boyitish, cho‘l hududlarining ekologik holatini yaxshilash va tarmoqning iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

Alikulov, A., Eshmuradov, U., & Abdushukurov, K. (2024). Improving Cost Accounting for Sales of Agricultural Products in Farms. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).

Egamovich, T. A., & Khojayarovich, N. S. (2022). INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR PROCESSING OF KARAKUL PELTS AND THEIR ECONOMICAL EFFICIENCY. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.1 Economical sciences).

Nurmanov, S. (2024). THE IMAGE OF A BIRD AS AN INDEPENDENT ELEMENT IN HISTORICAL AND ARCHITECTURAL OBJECTS. Western European Journal of Historical Events and Social Science, 2(11), 35-38.

Nurmanov, S., Eshimova, G., & Daniyarov, X. (2024). Raqamli iqtisodiyotning bugungi kundagi holati. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).

Rahmiddin o’g, Y. J. R., & Tirkashev, F. M. (2025). " TURIZM SOHASI KLASTERLASHUVI SHAROITIDA INFRATUZILMANING SAMARALI RIVOJLANISHI UCHUN USTUVOR VAZIFALARNIBELGILASH". INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(35), 15-23.

Rahmiddin o’g, Y. J. R., & Tirkashev, F. M. (2025, January). " TURIZM SOHASINI JAMIYATGA TADQIQ QILISHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI". In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 3, No. 30, pp. 242-250).

Rahmiddin o’g, Y. J. R., & Tirkashyev, F. M. (2024). AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO AMALIYOTI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(12), 70-77.

RAKHMATOV, B. (2024). THEORETICAL ASPECTS OF THE PROBLEM RESOURCE SAVING. Gospodarka i Innowacje., 46, 198-209.

Salamov I., va boshqalar (2024) “Qishloq xo‘jaligi klasterlarida mahsulotlarni ichki va xorij bozorlariga eksport qilish jarayonlari menejmenti” “AGRO KIMYO HIMOYA VA O‘SIMLIKLAR KARANTINI” Ilmiy -amaliy jurnal “YEM-XASHAK YETISHTIRISHDAGI MUAMMOLAR, ULARNING YECHIMI VA ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR” mavzusidagi Xalqarp ilmiy-amaliy anjuman Maxsus son.

Salamov, I., Nurmanov, S., & Hotamov, A. (2024). Chorvachilik tarmog ‘ida mahsulotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish imkoniytlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).

Salamov, I., va boshqalar (2024). Chorvachilik tarmoqlarida otchilik infratuzilmasining hozirgi holati va istiqboldagi iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).

Tangirov A., Nurmanov Sh. (2025) Cho'l-yaylovlari ekologik holati va ularning samaradorligini oshirish yo'llari. Scienceproblems.uz ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. № 2 (5) (ISSN: 2181-1342 (Online) Сайт: https://scienceproblems.uz DOI: 10.47390/SPR1342V5I2Y2025)

Tirkashyev, F. M. (2025). INTELLEKTUAL MULK TOIFASINI TAVSIFLASH. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(32), 92-98.

Xamdamova, N., va boshqalar (2024). Chorvachilikning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati va uning rivojlanishi. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).

Тангиров А.Э., Рурманов Ш.Х., Урунова Н.У. (2019) "Экономическая эффективность переработки каракульских шкур". Международной на учно-практической конференции «GLOBAL CIENCE AND INNOVATIONS: CENTRAL ASIA» НУР-СУЛТАН.